BUGUNGI KUNDA MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI BOSHQARISH JARAYONLARI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li
O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish hamda boshqarish" yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Xolmo'minov Mo'minmirzo Zokir o'g'li
O'zDSMI "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi v.v.dotsent
mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda barcha mamlakatlarda va yurtimizda madaniyat va san'at sohasi boshqaruviga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Sababi madaniyat va san'at sohasi boshqaruviga yangicha bilim, yangicha ko'nikma va yangicha dunyoqarash tobora kuchaymoqda. Shuning uchun ham ushbu maqolada, madaniyat va san'at sohasini bugungi kundagi boshqarish jarayonlari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat va san'at boshqaruvi, menejment, menejer, iqtisodiyot, bozor munosabatlari, yangicha dunyoqarash, ilmiy va nazariy bilimlar, investitsiya davlat, jamiyat, ma'naviyat, tadbirkorlik, innovatsiya, nodavlat va notijorat.

Abstract: Currently, in all countries and in our country, great attention is paid to the management of the sphere of culture and art. The reason is that new knowledge, new skills and a new outlook on the management of culture and art are gaining strength. That's why this article discusses the processes of managing culture and art today.

Keywords: Culture and art management, management, manager, economy, market relations, new outlook, scientific and theoretical knowledge, investment, state, society, spirituality, entrepreneurship, innovation, nonstate and noncommercial.

Bugungi globallashuv jarayonida davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar va islohatlarni madaniyat va san'at sohasi boshqarish jarayonlari bilan taqqoslash va amalga oshirish uchun rahbarlar, ya'ni menejerlar har tomonlama yetuk, bilimli, tajribali eng muhimi zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Madaniyat va san'at sohasi boshqaruvchi menejerlari buning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi va ichki siyosat yo'nalishlarini tushunadigan, tahlil eta oladigan, zamon bilan hamnafas, har bir innovatsion g'oyani qabul qiladigan, ushbu yangi g'oyani madaniyat va san'at sohasiga olib kiritadigan, shuningdek, islohatlarni qo'llab-quvvatlab, davlat rivojiga har jihatdan hissa qo'sha oladigan bo'lishi shart va zarur. Sababi hozirgi vaqtda shunday rahbarlarga ehtiyoj katta.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'atni innovatsion rivojlantirish juda katta dolzarblik kasb etayotgan muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, madaniyat va san'at muassasalari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning sifat darajasini oshirish borasida yangi yondashuvlar ishlab chiqilishini bugungi hayotimiz ham taqozo etmoqda. Barcha sohalarda tobora kuchayib borayotgan umumiy raqobat sharoitida madaniyat va san'atning o'ziga xos xususiyatlari mutasaddilar oldiga umumiy boshqaruvning innovatsion usullaridan oqilona foydalanish, xodimlarning kasbiy saviyasini oshirish kabi jiddiy vazifalarni qo'ymoqda. Hozirgi vaqtda hammamizga ma'lumki, fan-texnika yutuqlari rivojlanib, tobora yuksak cho'qqilarni zabt etib kelmoqda. Har bir sohaga innovatsiyalar joriy etilib, amalda tadqiq qilinib kelinmoqda.

Madaniyat va san'at ijodiy soha. Ma'lumki, badiiy ijod, ayniqsa san'at ko'p ham sxematik yondashuvni yoqtirmaydi, u ba'zan irratsionalga, intuitsiyaga tayanadi. Irratsional, intuitiv yondashuv badiiy ijodni betakror, K.Stanislavskiy iborasi bilan aytganda "ilohiy voqelik"ka aylantirib, resipientda aktyorlar yaratayotgan obrazlarga estetik munosabat uyg'otadi. Musiqa tovush va ohanglar, kuy va maqomlar vositasida resipient ruhiga ta'sir etsa, musavvir, haykaltarosh, me'mor va dizayner ranglar, kompozitsiyalar, binolar va yon-atrofni badiiy bezatish orqali ijtimoiy-madaniy borliq, makon yaratadi. Ular o'zidan o'zi ro'y bermaydi, har bir ijodkor o'z faoliyatini o'zi rejalashtiradi. Biroq mazkur ijodkorlar

faoliyatini boshqarish, jamiyat manfaatlariga yo‘naltirish, ularning intellektual va badiiy salohiyatidan samarali foydalanish uchun menejer zarur.[1;14]

Tajriba ko‘rsatadiki, aksariyat ijodkorlar faoliyatini tashqaridan boshqarishga rozi bo‘lavermaydi. Ular nazarida bunday boshqarish badiiy ijodning immanent xususiyatlariga muvofiq kelmaydi. Badiiy ijodkor uchun ko‘rsatma bilan she’r yozish, kuy bastalash, rangtasvir chizish g‘alati tuyuladi, ular nazarida ilxom kelmasa, ijod qilish qiyin. Ammo madaniyat va san’atning jamiyat bilan bog‘liq soxa ekanini, jamiyat esa uyushqoqlikni, boshqarishni, ratsional uyushtirishni taqozo etadi. Uyushtirilganlik, tashkil etilganlik va boshqarish sotsiumning bosh belgisidir. Jamiyat madaniyat va san’atga shu nuqtai nazardan yondashadi. Madaniyat va san’at sohasi boshqaruvchisi ham jamiyatning ana shu talabi mahsulidir.

Boshqarish so‘zi inglizcha “menejment” – boshqarish so‘zidan kelib chiqqan. Shu bilan birga, “boshqarish” atamasi “menejment” atamasi bilan to‘liq sinonim bo‘la olmaydi, chunki birinchisi o‘zining semantik diapazonida ancha kengroqdir. Chunki u ham texnik, ham biologik jarayonlarga taalluqli bo‘lishi mumkin.[2;9] Asrimizning 60-yillarida menejment amerikancha boshqaruv deb tushunilgan, keyinchalik “ilmiy boshqaruv” deb yuritila boshlagan. Menejmentga oid ko‘plab adabiyotlarda mutaxassislar ta’kidlashicha, “menejment” atamasi faqat bozor sharoitida faoliyat yurituvchi firma, tashkilot, korxona darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga nisbatan qo‘llanadi.

Darhaqiqat, insoniyat ma’naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san’atsiz kechmaydi. Mamlaktimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish va depsinish davrini boshidan o‘tkazib keldi. Lekin so‘nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o‘zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, 2017-yil 31-mayda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaror imzolandi. Ushbu qarorda quyidagi masalalar ustuvor vazifalar sifatida belgilandi:

- madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini o‘rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg‘or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarini o‘quv dasturlari va notalar, o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta’minlash;

- madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- yoshlarni san’at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o‘zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog‘lari hududida “Nuroniylar maskan”larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish; [3] – ushbu qarordan ham ko‘rishimiz mumkinki, madaniyat va san’at sohasi boshqaruv jarayoni albatta rivojlanish kerakligini.

Undan tashqari men ushbu maqolamda bir narsani aytib o‘tishni joiz deb bildim. 2023-yil 3-may sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni va 2022-yil 2-fevralda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarorida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Parlament komissiyasining 2022-yil 26-oktyabrdagi 25-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarini

qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan ajratilgan Davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag‘lari ko‘magida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Madaniyat va san’at sohasida zamonaviy boshqaruv jarayoni: muammolari va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Ushbu konferensiyasida ko‘zlangan asosiy maqsad, madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar, davlatimiz rahbari tomonidan sohaga oid qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning ijrosini ta’minlash, sohani boshqarishga doir innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, madaniyat va san’at muassasalarida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, shuningdek, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarni tahlil etish hamda takliflar ishlab chiqish, shuningdek, madaniyat va san’at sohasida kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Konferensiyada madaniyat va san’at vakillari, ziyolilar, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, professor o‘qituvchilari, institutning bo‘lajak madaniyat va san’at boshqaruvchisi bo‘lgan magistrlar hamda talabalar qatnashdi. Konferensiyada O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Madaniyat va san’at menejmenti kafedrasi v.v.b dotsenti, ustozim Mo‘minmirzo Xolmo‘minovning “Yoshlarimizning rivojlangan davlatlar madaniyatining mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji katta. Chunki, shahar va tumanlarda yoshlar uchun madaniy mahsulot yaratib beradigan, ijodiy ishlab chiqarish manbasi – madaniyat markazlarida ishlash tizimida mas’uliyatsizlik avj olgan. Madaniyat va turizm bo‘limi mudirlari ongi pofigizmga o‘rganib qolgan. Ular o‘zlarining mavqe va obro‘siga qanday munosabatda bo‘lsa, o‘shani qabul qilib o‘tiraveradi, afsuski. Biz madaniyat va san’at sohasi rahbarlarida pofigizmni “yo‘q qilishimiz” kerak” – deb aytgan so‘zlari meni juda ta’sirlantirib yubordi, hozirgi kunda haqiqatdan ham madaniyat va san’at sohasi boshqaruvchilari sohada ustoz aytganlaridek “pofigizm”ni yo‘qotish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, bugungi kunda sohaga qaratilayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik namunasini yuqorida bir qator misollar bilan keltirib o‘tdik. Bu kabi sohani rivojlantirishga doir chora-tadbirlar hamda yuksak e’tibor va imzolangan farmon, qarorlarning ijrosini ta’minlash doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan sohaga qaratilayotgan g‘amxo‘rlik va imkoniyatlar yaqin kelajakda tub o‘zgarishlarga olib keladi va o‘z samarasini ko‘rsatadi desak xato bo‘lmaydi. Bunday yuksak e’tibor hamda ishonchni his qilgan holda biz kabi yosh yetishib chiqadigan mutaxassislar hamda soha xodimlari ham yanada shijoat bilan ishlashi, madaniyat va san’at sohasi ravnaqiga bor kuch va salohiyatini safarbar etishi lozimdir. Shunday ekan, Muhtaram Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Yangi O‘zbekiston jahon maydonida kuchli, salohiyatli, munosib obro‘ - e’tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mas’ul muharir: M.Xolmo‘minov. “Madaniyat va san’at sohasida zamonaviy boshqaruv jarayoni:muammolar va yechimlar”[Matn] :to‘plamda /- Toshkent: “Ijod print”, 2023.-504b
2. Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar konferensiya to‘plami. Toshkent – 2020. 14-15 betlar.
3. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 2017-yil 31-may. www.lex.uz.
4. Mas’ul muharrirlar: Haydarov A., Yo‘ldoshev I., Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni. (Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya maqolalar to‘plami) – Toshkent.; “Oltın meros press”, 2020. – 448 bet.
5. A. Haydarov. Harakatlar strategiyasi va ma’naviy yuksalish. “Donishmand ziyo” nashriyoti. Toshkent – 2020. 13-bet.
6. 6.G. Bekvit. Prodvaya nezrimore. Moskva – 2011. Alpine Pablisher

7. Mardiyev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Xolmo‘minov Zokir O‘g‘Li Mo‘minmirzo. "YANGI O ‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSH RAHBARLARGA QO ‘YILADIGAN TALABLAR." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 243-247.
8. Axmatov, Otabek Murod O‘G‘Li, and Xolmo‘minov Zokir O‘g‘Li Mo‘minmirzo. "YANGI O ‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSH RAHBAR KADRLARNING O ‘RNI." Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 395-399.
9. Xolmo‘minov, Mo‘minmirzo. "RAHBARNING ISH USLUBIDA IMIJNING O ‘RNI." Educational Research in Universal Sciences 2.2 (2023): 156-160.
10. Mardiyev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. "BOSHQARUVDA RAHBAR QIYOFASI VA UNING AXLOQI." Oriental Art and Culture 4.1 (2023): 391-397.
11. Mardiyev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. "RAHBAR AXLOQI VA ADOLATLI BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI." Oriental Art and Culture 4.1 (2023): 276-282.
12. Mardiev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. "RAHBARLARNING BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH VA IJROSINI TA’MINLASH." Oriental Art and Culture 4.1 (2023): 509-514.
13. Xayriddinova, Asal Farhod Qizi, and Mo‘Minmirzo Zokir O‘G‘Li. "BUGUNNING ZAMONAVIY RAHBARI." Oriental Art and Culture 3.4 (2022): 184-188.
14. Xolmo‘minov, Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li. "MADANIYAT BO ‘LIM MUDIRLARINING ISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI." Oriental Art and Culture 3.3 (2022): 95-101.
15. Xolmo‘minov, Mo‘minmirzo Zokir o‘g‘li. “2017-2022-yillar mobaynida madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi. “Oriental Art and Culture” 3.2 (2022): 558-567.
16. Xayriddinova, Asal Farhod qizi. “Bayramlar tarıxı va ularnıng ılmıy-amalıy asosları.” Oriental Art and Culture 3.4 (2022): 178-183.

WORDLY KNOWLEDGE